



CHOSON DAVLATI: KOREYA SIVILIZATSIYASINING POYDEVORI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

Mirzamatov Bunyodbek

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan
filiali “Tarix” yo‘nalishi ikkinchi bosqich talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqola Koreya yarim orolidagi dastlabki davlatlardan biri hisoblangan Ilk Choson davlati haqida ma’lumot beradi. Ilk Choson Koreya tarixida o‘ziga xos o‘rin tutib, koreys xalqining siyosiy va madaniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Maqolada Ilk Choson davlatining tashkil topishi, siyosiy tuzilmasi, iqtisodiy faoliyati, shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan aloqalari va ichki boshqaruvi haqida so‘z boradi. Shu bilan birga, Ilk Choson davlatining Koreya madaniyati va milliy qadriyatlarini shakllantirishdagi o‘rni ham yoritilgan bo‘lib, ushbu davrning ahamiyatini kengroq tushunish imkoniyatini beradi.*

Kalit so‘zlar: *Koreya tarixi, Siyosiy tuzilma, Iqtisodiy faoliyat, Madaniy rivojlanish, Milliy qadriyatlar, Qo‘shni davlatlar, Ichki boshqaruv, Koreya madaniyati, Ilk davlatlar, Koreya yarim oroli, Choson davlati.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация об одном из первых государств на Корейском полуострове – государстве Ранний Чосон. Ранний Чосон занимает особое место в истории Кореи, играя важную роль в политическом и культурном развитии корейского народа. В статье рассматриваются возникновение государства Ранний Чосон, его политическое устройство, экономическая деятельность, а также отношения с соседними государствами и внутренняя структура управления. Также освещена роль государства Ранний Чосон в формировании корейской культуры и национальных ценностей, что позволяет глубже понять значение этого периода.*



Ключевые слова. История Кореи, Политическая структура, Экономическая деятельность, Культурное развитие, Национальные ценности, Соседние государства, Внутреннее управление, Корейская культура, Первые государства, Корейский полуостров, Государство Чосон.

Annotation. *This article provides information about one of the earliest states on the Korean Peninsula – the Early Choson state. Early Choson holds a special place in Korean history, playing a vital role in the political and cultural development of the Korean people. The article examines the founding of the Early Choson state, its political structure, economic activities, as well as its relations with neighboring states and its internal governance. Additionally, the role of Early Choson in shaping Korean culture and national values is highlighted, providing a deeper understanding of this period's significance.*

Keywords. *Korean history, Political structure, Economic activities, Cultural development, National values, Neighboring states, Internal governance, Korean culture, Early states, Korean Peninsula, Choson state.*

Mo'g'ullarning kuchayishi va Xitoyda Ming sulolasining kuchayishi Koreyaning shimoliy chegaralarida tartibsizlik boshlandi. Mo'g'ullarning Yuan davlatidan bo'lgan qochqinlar bir necha marotaba Koryo (Koreya)ga bosqinlar bo'ldi. Natijada ichki zaiflikda turgan Koryo davlatida qirol sulolasi o'zgardi. Hokimiyatga Yi Song sulolasidan bo'lgan Tejon (Li Son Ge) keldi va davlat nomini Choson deb atadi. 1392-yilda Choson davlatini asos solgan va birinchi hukmdori bo'lgan. Goryeo davlatiga xizmat qilgan yuqori darajali qo'mondon sifatida shuhrat qozongan. Goryeo davlatidagi korrupsiya va ichki nizolardan norozi bo'lib, Li Son Ge 1392-yilda hokimiyatni o'z qo'liga oldi va Choson davlatini tashkil qildi. Shu bilan u Koreya tarixidagi yangi davrni boshlab berdi. U davlatni konfutsiylik asosida boshqarishni boshladi va poytaxtni Hanseongga (hozirgi Seulga) ko'chirdi. U taxtga kelgan paytda



keksa bo'lganligi sababli o'g'illari o'rtasida tax tuchun kelishmovchiliklar ro'y beradi. Taxt katta o'g'il Li Ban Von (van Tejon)ga qoladi.

Davlat boshqaruvi faoliyatini yaxshilash uchun bir qator hukumat tashkilotlari tarqatib yuborildi, ba'zi davlat tuzilmalari qisqartirildi. Van tasarrufida bosh vazir va uning ikki o'rinbosaridan iborat oliy hukumat organi - Davlat yig'ini (Ichjonbu) tashkil qilindi. Barcha davlat tashkilotlari 6 vazirlik bo'yicha taqsimlandi: 1) amaldorlar bo'yicha; 2) moliya; 3) mudofaa; 4) tantanalar; 5) adliya; 6) hunarmandchilik va jamoat ishlari, Vazirliklar bilan birga davlat boshqaruvida 3 ta nazorat devonxona "sam sa- 삼사" (nazorat) organi tuzildi. Islohotlar tufayli samarali davlat boshqaruv 11 millionga ko'paygan devonxonasi shakillangan. Bu borada shuni aytish kerakki, mamlakat poytaxtida amaldorlar 500-600 kishini tashkil qilgan. Li sulolasi davrida mamlakat aholisi 3 milliondan. Markazlashgan hokimyatni mustahkamlash uchun barcha shaxsiy harbiy guruhlar tarqatib yuborilgan. Umumiy harbiy majburiyat asosiga qurilgan doimiy markaziy va viloyat qo'shinlariga bo'lingan. Qo'shnlarni saqlash zaxiradagilar zimmasiga tushgan bo'lib, ularning asosini dehqonlar tashkil etgan. Davlat hududini himoya qilish maqsadida mamlakat bo'ylab gulxanli signallar va pochta xizmati tizimi joriy etilgan.¹ Chosonda tabaqalar mavjud bo'lib, ular: yanban – zodagon oqsuyaklar bolgan. Ular amaldor va harbiy xizmatchilar bo'la olishgan. Ulardan keyin chuninlar – o'rta hol kishilar (tarjimon, huquqshunos, tabiblar ...). Keying tabaqa sanin – ular soliq tulovchi qatlam va hunarmand, dehqonlar bo'lishgan.

Choson davlati qattiq markazlashgan va konfutsiylik tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimiga ega edi. Hokimiyat qirol qo'lida bo'lib, u zodagonlar yordamida davlatni boshqardi. Davlat islohotlari orqali zodagonlar va intellektual qatlami rivojlanishga undaldi. Shu tarzda Choson davlati ilm-fan, san'at va adabiyotning

¹ Jumayev To'liqin Xolmurodovich – "Koreya davlati tarixi", Yashil yaproq nashryoti – 2024. 110-111 p



o'sishiga asos slogan.² Choson davlatida konfutsiylik ta'lim tizimi hukmronlik qilgan bo'lib, ta'lim sohasida katta o'sish kuzatilgan. 15-asrda Qirol Sejong tomonidan Hangul alifbosi yaratilib, bu xalq orasida savodxonlikni oshirdi. Shuningdek, Choson davlati davrida qishloq xo'jaligi va astronomiya kabi ilmiy sohalar rivojlandi.³ Hokimiyatga Li sulolasi kelishi bilan neokonfutsiylik yangi davlat g'oyasiga aylangan. Jamiyat taraqqiyoti uchun bo'lgan ehtiyoj "nirvana"ga bo'lgan buddaviylik yo'nalishi va hayotga bo'lgan munosabat kabi yechilmagan muammolarni faol va amaliy tarzda yechishni talab qilardi. Buddaviylik barcha falokatlarning sababchisi deb e'lon qilindi. Buddaviylik ibodatxonalari qaram dehqonlaridan mahrum bo'ldi va ularga tegishli yerlar bir necha barobar qisqartirildi. Aynan mana shunday sababga ko'ra daotsizm ham o'zining tarafdorlaridan mahrum bo'ldi (1518 yil Seulda markaziy daotsiylik ibodatxonasi yopilgan). Seulda va viloyatlarda konfutsiylik maktablari ochilgan. Davlat Kengashi bilan birga davlat maslahatchilari Palatasi ham joriy etilgan bo'lib, unga konfutsiy olimlari kirgan. XVI asrda konfutsiy olimlar sharafiga bag'ishlangan konfutsiylik ibodatxonalari SO-vonlar tashkil qilingan bo'lib, vaqt o'tishi bilan ular mahalliy siyosiy markazlarga aylangan.

Tarixchi olimlar Choson sulolasini davlat tepasiga kelish jarayonini inqilob natijasimi yoki sulolalar almashinivumi degan masalada hozirgi kunda ham o'zaro bahsga borishadi. Ko'pgina neo-konfutsiylik tarafdorlari bo'lgan olimlar o'tmishda vujudga kelgan Koreya yarim orolidagi davlatlar tarixini yangi davrda vujudga kelgan davlatlar bilan solishtirganda ko'proq konfutsiylik e'tiqodining davlatlar vujudga kelishidagi ta'siri yuqori bo'lgan deb baholashadi. Koreya tarixida hukmdorlar barcha diniy marosimlarni qo'llab quvvatlashgan. Masalan, Koryo davlati hukmdorlari buddizmni targ'ib qilib, ibodatxonalar qurdilar va Sangha bilan yaqin munosabatlar o'rnatdilar. Ular, shuningdek, Konfutsiy marosimlarini o'tkazdilar, ziyoratgohlarga homiylik

² Kim, Djun Kil. "The History of Korea". Westport: Greenwood Press, 2005. 102-105p

³ Cumings, Bruce. "Korea's Place in the Sun: A Modern History". New York: W. W. Norton & Company, 2005. 67-70p



qildilar va davlat xizmati imtihonlari uchun o'quv dasturlariga Konfutsiy matnini kiritdilar. Ular, shuningdek, shomonlarga homiylik qilishgan va ularni qo'llab-quvvatlaganlar. Ammo neo-konfutsiychilar tarafdorlari bo'lgan toifa konfutsiylikni targ'ib qilmaydigan barcha marosimlar va urf-odatlarini mukammal jamiyat yaratish loyihasiga zararli deb hisoblaganlar. Ular boshqa dinning urf-odatlar bilan bog'liq barcha davlat aloqalarining o'zaro tugatishni xohlashdi. Ular koreys jamiyatini neo-konfutsiylik tamoyillari asosida qayta qurishdan boshqa narsaga intilmaganlar. Islohotchilarning aksariyati ayniqsa buddizmga dushman edi. Yi Sak kabi so'nggi Koryo neokonfutsiychilar oqimi etakchisi buddizmni doimo tanqid qilardi. Ular budda rohiblarini axloqiy zaifligi va siyosatga aralashgani uchun haqorat qildilar.⁴

Choson davrining dastlabki o'n yilliklarida e'tiqodli konfutsiyalar, "xizmat ko'rsatgan amaldorlar" - xungular ko'proq ta'sir doirasiga ega bo'lib, hokimiyatga egalik qilganlar. Biroq, vaqt o'tishi bilan jamiyat hayotida islohotlar g'oyasini ilgari surgan neokonfutsiyalar yoki sarimlar ("olimlar o'rmoni") yetakchilik qilgan. Shu bois Van Sonchjon (1469- 1494) davrida ular yuqori lavozimlarni egallaganlar. Biroq, 1498-yilda regent Yonsan Gun (1494-1506) davrida xungular tavsiyasiga ko'ra, ko'plab yuqori martabali sarimlar o'ldirilgan yoki surgun qilingan. Buning sababi van Sejo (1455-1468) davrida voyaga yetmagan van Tanjon (1452- 1455)ning amakisi noqonuniy taxtni egallab, uni viloyatga yuborgan. 1457 -yili esa unga o'zini o'zi o'ldirishi to'g'risidagi buyruqni yuborgan. Buddaviylikning mavqeini qayta tiklashga qaratilgan harakati uchun u uzurpal nomini olgan van Chunjon (1506-1544) davrida sarimlar islohotlar o'tkazishga harakat qilganlar. Aynan mazkur islohotlar "xizmat ko'rsatgan amaldorlar"ning tinchligiga birmuncha xavf solgan, jumladan, davlat imtihonlari orqali amaldorlarni tayinlash iqtidorli odamlarning kashf etilishiga sabab bo'lgan. Biroq, 1519- yilda xungular kurashning yangi ko'rinishini boshlagan va mazkur kurashlarda ko'plab islohotchilar jon bergan. Van Sonchjo (1567-1608)

⁴ Хан.В.С. "Koreya tarixi". Baktria press, 2013. 71p



davrida sarimlar g'alaba qozonganlar. Biroq, ikki o'rtada neokonfutsiylarga raqobatchi partiya ("pundan") paydo bo'lib, dastlab sharqiy va g'arbiy, keyinchalik sharqiy partiya janubiy va shimoliy guruhlariga bo'lingan.⁵

Kim Si Sip ateizm yo'liga kirgan birinchi koreys faylasufi hisoblanadi. U ruhning abadiyligi va jannat yoki do'zax haqidagi qarashlarni, shomonlar faoliyatini yolg'on deb talqin qildi. Kim Si Sip xalqni "gumanistik boshqarish" tarafdori bo'lgan. U o'zining asarlarida oddiy xalq hayotining azob-uqubatlari haqida yozib, hukmdorlarning hashamatli hayotini tanqid qiladi. Chjusianlikning yana bir yirik namoyandasi Li Xvan (Txvege, 1501-1570) bo'lgan. Txvege chjusianlikning qayta tiklanishi tarafdori bo'lib, u muxolifatdagi barcha ta'limotlarni tanqid qilgan. Li Xvan konfutsiylik asketizmining yetakchisi bo'lgan. U nafaqat hashamatli hayot tarzini, balki oddiy uylarni ham tanqid qilgan, hatto yemakni ham "yomonlik" deb hisoblagan.

XV- XVI asrlar Ilmiy-texnik va islohotlar davri bo'lib, fan madaniy yutuqlar va madaniyat sohasida katta yutuqlarga erishilgan. Ilmiy- texnikaviy yo'nalishdagi yutuqlar avvalo amaliy ahamiyat kasb etgan. Bu davrda ob-havo va bulutlarni kuzatish rivojlangan, yulduzlar xaritasi, yomg'ir miqdorini o'lchovchi asbob, topografik asboblari, aniq taqvim, notali yozuv, quyosh va suv soatlari yaratilgan. Shu bilan birga qurolsozlik, kemasozlik va matbaachiilik sohasida ham katta yutuqlarga erishilgan. Tibbiyot sohasida 1445 yili 365 kitobdan iborat "Davolash yo'llari majmuasi" (1445 y.) va 85 kitobdan iborat "Mahalliy dorilar haqida ma'lumotlar majmuasi" (1456 y.) nomli fundamental ishlar chop etilgan. Aynan mazkur ishlar orasida oxirgi kitobda kasalliklarni davolash bo'yicha 955 ta maqola, 10706 retseptlar va 1477 ta igna sanchib davolashga oid tavsiyalar berilgan. 1610 yilda "Sharq tabobati xazinasi" nomli kitob nashr qilingan. Unda Xitoy va koreys tabobatiga oid 500 dan ortiq risolalar o'rin olgan. Qirol Sejon (1418-1450) davrida qishloq xo'jaligiga oid asarlar yaratilgan bo'lib,

⁵ <https://www.samdu.uz>



ularada malakali ziroatchilarning tajribalari umumlashtirilgan. Seleksiya ishlari ham rivojlangan bo‘lib, turli iqlim va tuproqlarga moslashtirilgan o‘simliklar (sholi, arpa, bug‘doy)ning yangi navlari yaratilgan. Tarixiy tadqiqotlar tizimli ko‘rinish olgan. 1450 yili "Koreyaning harbiy sharhi" nomli kitob chop etilgan. 1485 yilda - "Koreyaning umumiy sharhi" e‘lon qilingan. Maxsus olimlardan tashkil topgan guruh 1451 yili 139 kitobdan iborat "Koryo sa" ("Koryo tarixi")ni yozgan. 1454 yili van Tanjon davrida "Yilnoma yoki Sejon davrining asl yozuvlari" chop etilgan bo‘lib bu kitobga van, buyruqlari, rasmiy ma‘ruzalar, tekshiruvchilar hisobotlari kabi rasmiy hujjatlar kiritilgan. Chosonning keyingi barcha tarixi davomida aynan shunga o‘xshash yilnomalar tuzish an‘anaga aylangan.⁶ Ayni bu davrdagi muhim yutuqlardan biri 1418-145 – yillarda qirol Sejon tomonidan amalga oshirilgan ta‘lim islohotidir. U koreys tili alifbosiga asos solidi. Qirol Sejon avvom xalq oson va tez o‘rganishi uchun “to‘g‘ri tovushlar haqida xalqqa nasihat” nomli kitob chop etiladi. Hangil alifbosi 14 ta undosh va 10 ta unli tovushdan iborat bo‘lib, undagi har bir harf talaffuz qilishga qulay qilib yaratilgan. Undosh tovushlar og‘iz, tish, lab kabi nutq organlarining shaklidan ilhomlangan, unli tovushlar esa quyosh, yer va odamni ifodalovchi chiziq va nuqtalar orqali tasvirlangan. Hangil o‘qimishli elita tomonidan ilk davrda qarshilikka uchragan bo‘lsa-da, 19-asrdan boshlab u keng ommaga tarqaldi va bugungi kunda Koreyaning rasmiy yozuv tizimiga aylandi. Hozirda koreys alifbosida 40 ta harf bo‘lib, ulardan 14 ta undosh, 10 ta unli, 4 ta qo‘sh undosh va 12 ta diftonglar bor.

XVIII asrda ham dunyo haqidagi tasavvurlar mavjud bo‘lib, Li Ik yerning yumaloqligi, uning aylanishi, Yer, Oy va Quyosh hajmi va ularning tortishuv nuqtasi hamda oy quyosh kabi yoritishi haqida bu davr u chun inqilobiy ko‘rinishdagi fikrlarni ilgari surgan. Li Ik turli tabiiy ofatlar, xususan, yer qimirlashi, toshqinlar, bo‘ron, havo harorati o‘zgarishi borasida ilmiy qarashlarini bildirgan. Li Ik fikricha, mamlakatning qashshoqlashuvining oltita sababi bo‘lgan: 1) krepostnoy qullik; 2) tabaqalanish tizimi;

⁶ Jumayeva T.X, Ergasheva D.A. – “Koreyada madaniyat va ta‘lim”. Yashil yaproq – 2024. 76-78p



3) "kvago " tizimi; 4) sehrgarlik va bid'at; hunarmandlarning zeb-ziynat buyumlariga maxsus ixtisoslashuvi; 5) rohiblarning tekinox'rligi; 6) mehnatga munosib bolmagan haq to'lanishi.

XIX asrning o'rtalariga kelib, g'arbiy kuchlar Xitoy va Yaponiyaning Qing sulolasini o'z eshiklarini ochishga majbur qilishdi va keyin Joseondan xuddi shunday so'rashdi, ammo Choson bunday so'rovlarni munosib ravishda rad etdi. Choson 1866 (frantsuzlar tomonidan) va 1871 (amerikaliklar tomonidan) dengiz hujumlari ko'rinishidagi bosimga bo'ysunmadi. Keyingi davrda bosim to'xtamadi. 1875 yilda Yaponiya Unyo Maru jangovar kemasini Gangvado va Yeongjongdo orollariga hujum qilish uchun jo'natib, Chosondan tashqi savdo missiyalari uchun eshiklarini ochishni talab qildi. Oxir-oqibat, Choson harbiy tahdid ostida 1876 yilda Yaponiya bilan juda tengsiz, bir tomonlama Koreya-Yapon shartnomasini yoki Gangwa shartnomasini (1876) imzolashga majbur bo'ldi. Keyinchalik imperialistik kuchlar, shu jumladan Yaponiya, Chosonning resurslarini talon-taroj qilish uchun bir-birlari bilan kurashdilar. 1897 yilda Choson o'z nomini Koreya imperiyasiga (Daehan Jeguk) o'zgartirdi va islohotlar va ochiq eshiklar siyosatini ilgari surdi, ammo juda kech edi. Yaponiya tez orada Qing sulolasi va Rossiyaga qarshi urushlarida katta g'alabalarni qo'lga kiritdi, Shimoliy-Sharqiy Osiyoda kuchli davlat sifatida maydonga chiqdi va Joseonni anneksiya qilish choralari ko'rdi. Ko'pchilik koreys vatanparvarlari, jumladan, An Jung Geun ham bunday rejaga qarshilik ko'rsatishdi, ammo hech qanday natija bermadi. 1910-yil avgustda Koreya imperiyasi Yaponiya imperiyasiga rasman qo'shib olindi.⁷

Xulosa. Choson davlati, Koreya madaniyatining rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Uning davrida yaratilgan adabiyot, san'at va ilm-fan, bugungi kunda ham Koreya jamiyatida katta ahamiyatga ega. Choson ijtimoiy tuzilishi va Konfutsiylik tamoyillari, davlatni bir yoqqa boshqarish uchun muhim asos bo'lib xizmat qildi. Bu tizim orqali

⁷ <https://kccuk.org.uk>



ijtimoiy tartibni ta'minlashga harakat qilindi. Choson davrida ijtimoiy sinflar tizimi kuchayib, qishloq aholisining huquqlari cheklanishi muammolarni keltirib chiqardi. Bu ijtimoiy tengsizlik va qiyinchiliklarga olib keldi. XIX asrda Choson davlatining zaiflashishi, tashqi bosqinchiliklar va kolonial siyosatga yo'l ochdi. Bu holat Koreya xalqining mustaqilligi va madaniyatiga tahdid tug'dirdi. Choson davlatining qulashi, Koreya tarixida muhim o'rin tutib, mamlakatning kelgusi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Ushbu jarayonni o'rganish, Koreya xalqi uchun o'z tarixi va madaniyatini anglashda muhim ahamiyatga ega. Choson davlati Koreya tarixida katta o'rin tutgan, uning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan davlat bo'ldi. Bugungi Koreya madaniyati va qadriyatlarida Choson davrining ta'sirini ko'rish mumkin, xususan, Hangil alifbosi va konfutsiycha qadriyatlar orqali. Chosonning uzoq davom etgan hukmronligi Koreya milliy o'ziga xosligini shakllantirgan va uning hozirgi Koreya davlatidagi rolini mustahkamlagan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Jumayev To'liq Xolmurodovich – “Koreya davlati tarixi”, Yashil yaproq nashryoti – 2024. 110-111 p
2. Kim, Djun Kil. “The History of Korea”. Westport: Greenwood Press, 2005. 102-105p
3. Cumings, Bruce. “Korea's Place in the Sun: A Modern History”. New York: W. W. Norton & Company, 2005. 67-70p
4. Xan.V.S. “Koreya tarixi”. Baktria press, 2013. 71p
5. <https://www.samdu.uz/uz/news/32793>
6. Jumayeva T.X, Ergasheva D.A. – “Koreyada madaniyat va ta'lim”. Yashil yaproq – 2024. 76-78p
7. <https://kccuk.org.uk/en/about-korea/history/the-fall-of-joseon-imperial-japans-annexation-of-korea/>